

XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI XONLIKDAGI SIYOSIY VAZIYAT VA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at fakulteti
Tarix yo’nalishi talabasi

Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10636636>

Annotatsiya. Ushbu maqola xiva xonligining tashkil topishi, xonlikning chegaralari, aholi turumush tarzi, boshqaruv tizimida olib borilgan islohalatlar hamda xonlikdagi siyosiy vaziyat hamda xarbiy qo’shin va mudofa, xonlikdagi joriy qilingan mansablar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi va ma’lumotlar bayon etiladi.

Kalit so’zlar: Xiva xonligi, siyosiy vaziyat, aholi, chegaralar, islohatlar, boshqaruv, davlat, xonlik, mudofa, xarbiy qo’shin, mansab.

THE ORGANIZATION OF THE KINGDOM OF XIVA, THE POLITICAL SITUATION AND THE STATE ADMINISTRATION SYSTEM IN THE KINGDOM

Abstract. This article provides opinions and information about the formation of the Khiva Khanate, the boundaries of the Khanate, the way of life of the population, the reforms carried out in the management system, and the political situation in the Khanate, as well as the military and defense forces, and the introduced positions in the Khanate.

Key words: Khanate of Khiva, political situation, population, borders, reforms, administration, state, khanate, defense, military, career.

ОРГАНИЗАЦИЯ КОРОЛЕВСТВА КХИВА, ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ И СИСТЕМА ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОРОЛЕВСТВЕ

Аннотация. В данной статье приводятся мнения и сведения об образовании Хивинского ханства, границах ханства, образе жизни населения, реформах, проводимых в системе управления, и политической ситуации в ханстве, а также военные и оборонительные силы, а также введенные позиции в ханстве.

Ключевые слова: Хивинское ханство, политическая ситуация, население, границы, реформы, управление, государство, ханство, оборона, армия, карьера.

„Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi.“

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Xiva xonligi XIX asrning ikkinchi yarmida janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari yerlari O‘rta Osiyo davlatlarining hududi bilan chegaradosh bo‘lgan. Xonlikning ma’muriy markazi Xiva shahri hisoblangan. Xonlikda Xiva, Kat, Yangi Urganch, Hazorasp, Qo‘ng‘iroq, Xo‘jayli kabi bekliklarning markazlari bor edi. Xiva xonligi 18 ta beklik, 2 ta noiblikka bo‘lingan va ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va to‘ralar boshqargan. Xorazm hududida jami 20 ga yaqin o‘zbek qabilasi istiqomat qilar edi. Ular orasida qo‘ng‘iroq, mang nayman, qipchoq va qiyot qabilalari ko‘p sonli va eng kuchli qabilalar

bo‘lgan. Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Xuroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda qo‘ng‘irot qabilasidan chiqqan Chin So‘fi hokim edi.

U rasman Husayn Boyqaro noyibi hisoblanardi. 1505-yili Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir shahri qozisi Umar qozi yetakchiligidan safaviylar hukmronligiga qarshi harakat boshlanadi. Xorazmning mo‘tabar zotlari mamlakat taxtiga Shaybon avlodlaridan Berka Sultonning o‘g‘li Elbarsxonni o‘tqizishga qaror qildilar. U bu davrda Dashti Qipchoqda edi.

Berka Sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajara dan bo‘lsa-da, ular o‘zaro dushmanlik munosabatida edilar. 1480-yilda o‘zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o‘z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka Sultonning o‘ldirilganligi buning sabablaridan biri edi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Xorazmning erksevar xalqi Elbarsxon yetakchiligidan 1511-1512-yillarda Eron qo‘shinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Shu tariqa 1511-yilda Xorazm mustaqilligi tiklandi va bu davlat endi Xiva xonligi deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham shayboniylar vakil lari bo‘ldi. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi 1770-yilgacha davom etdi. Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko‘chirildi. Elbarsxon Vazir shahrini Eron qo‘shinlaridan ozod etgach, bu g‘alaba sharafiga o‘z o‘g‘illari nomiga „g‘ozi“ laqabini qo‘shib aytishini buyurgan. Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko‘pgina qabilalaming ko‘chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada xonlik hukmdoriarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi. Bu omil Xiva hukmdoriga xonlik hududini qo‘shni davlatlar hisobiga kengaytirib olish imkonini berdi. Chunonchi, Elbarsxonning 1516-yilgacha bo‘lgan hukmronlik davrida Shimoliy Xuroson, Saraxs, Oral va Mang‘ishloq egallandi.

Movarounnahrdagi Shayboniylar davlati kichik mulklarga bo‘lingan. Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatdan bir-biridan keskin farq qiluvchi uch guruhga bo‘lingan: 1) qadimiy xorazmliklaming bevosita avlodlari; 2) turkman qabilalari; 3) Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko‘chib kelgan qabilalar. Ayni paytda ular markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka, mustaqillikka intilishgan. Bu holat o‘zaro nizolami keltirib chiqargan. Xiva xonligida yirik o‘zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalariga aylangan. Ular xonlikning butun ijtimoiy-siyosiy hayotiga hal etuvchi ta’sir ko‘rsatib kelganlar. XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo‘ldi. Buning asosiy sabablaridan biri — Amudaryoning o‘z o‘zanini o‘zgartirib, 1573-yildan boshlab Kaspiy dengiziga oqmay qo‘yanligi bo‘ldi. Daryo 15 yil davomida Oral dengizi yo‘nalishiga burildiki, natijada eski o‘zan atrofidagi yerlar cho‘lga aylandi. Aholi esa xonlikning boshqa hududlariga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o‘zaro qabilaviy urushlar, og‘ir soliqlar hamda turli to ‘lov va jarimalar mamlakat ahohsini xonavayron qilgan. Bu hol savdo-sotiqqa katta putur yetkazgan. Markaziy Osiyoda dastlab tashkil topgan, doimo o‘zaro dushmanlik munosabatlari hukm surgan. Buning asosiy sababi — xonliklarning doimo bosqinchilik urushlari hisobiga o‘z hududlarini kengaytirishga urinishlari bo‘lsa, ikkinchisi, Buxoro va Xiva xonligida hukmron sulolalaming bir-biriga g‘anim bo‘lib qolgan xonadonlarga mansubligi edi. Xivani Buxoroga bo‘ysundirish harakati Ubaydullaxon davrida boshlandi. Ubaydullaxon 1537—1538-yillarda Xorazmga hujum qilib,

Xiva xonligini Buxoroga bo‘ysundiradi. Xiva xoni Avaneslixon (1525—1538) qo‘shinlari tor-mor keltirildi, xonning o‘zi esa o‘ldirildi. Ubaydullaxon o‘g‘li Abdulazizni Xorazmga noib etib tayinladi. Biroq bu ahvol uzoq davom etmadni. Mahalliy xalq Avaneslixon avlodlari boshchiligida mamlakatni ozod etdi. Ubaydullaxon yuborgan qo‘shin ham tor-mor keltirildi.

Abdulazizzon Urganchdan Buxoroga qochib ketadi. Keyingi hukmdorlar davrida ham bu ikki xonlik o‘rtasidagi adovat va dushmanlik to‘xtamadi. Jumladan, Buxoro xoni Abdullaxon II 1593-yili Xiva xonligini bosib oladi. Xiva xoni Hojimxon (1558—1602) oilasi bilan Eron shohi Abbas huzuriga qochishga majbur bo‘ladi. 1595-yilda Xiva sultonlari xonlikning yirik shaharlarini egallaydilar. Lekin shu yili Abdullaxon II Xiva xonligi ustiga yana qo‘shin tortib keladi. Hoji Muhammad (Hojimxon) yana Eronga qochadi. Faqtgina 1598-yili Abdullaxonning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o‘zaro toj-u taxt uchun kurashlar oqibatida Hojimxon Xiva xonhgi taxtini qayta egallahsga va o‘z hokimiyatini mustahkamlab olishga erishadi. Bu davrda Xiva xonligi Mang‘ishloq, Bolxon tog‘lari, Dehiston, 0‘zboy, Shimoliy Xuroson hududlarini ham o‘z tasarrufiga olgan edi. 1511-yilda Markaziy Osiyoda yana bir davlat — Xiva xonligi tashkil topdi. Xiva xonligining asoschisi Dashti Qipchoqlik Elbarsxon edi.

Abdullaxon II davrida Xiva xonligi 2 marta (1593-va 1595-yilda) Buxoroga bo‘ysundirilgan. Xiva xonligi tarixiga oid manbalar, arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlarni chuqur tahlil etgan manbashunos olim Sh. Vohidov xonlikda quyidagi amallar, unvon va mansablar, vazifalar bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi: Amir ul-umaro, aravachi, arbob, a’lam, buxchi, buxchabardor, vazir, vakil, bek, beklarbegi, biy, bojbon, botirboshi, bog‘bon, darvozabon, dasturxonchi, dahboshi, devon, devonbegi, dorg‘a, doruchi, dorug‘a, jallod, jallodboshi, jarchi, jirchi, zargar, imom, imomi jilav, inoq, yilqibon, kalontar, karvonboshi, karnaychi, katxudo, kitobdor, kitobbardor, kulol, kutvol, kuchanchi, ko‘mirchi, loykash, mahram, mahramboshi, dahboshi, mahsido‘z, mergan, mehtar, miltiqsoz, mingboshi, mirob, miroho‘r, muazzin, mudarris, mutavalli, mufti, mufti askar, mushrif, muharrir, muhtasib, navkar, naqib, naqibxo‘ja, noib, nonvoy, otaliq, otchopar, oftobachi (qumg‘onchi), oxun, oshpaz, oqo-oq‘o, oqsoqol, panjohboshi, panjsadboshi, parvonachi, poyaki, rais, raisi kalon, ro‘molchi, sayis, sandiqchi, sarboz, sarbon, sarroj, sarhang, selobchi, sipohiy, soatsoz, sozanda, suvchi, soqchi, surnaychi, so‘fi, temirchi, tikuvchi, tirnoqchi, tovoqchi, toshchi, tunqator, tug‘chi, tug‘chiboshi, to‘pchi, to‘ra, to‘shakchi, udaychi, farrosh, farrosh yuzboshi, xazinachi, xalifa, xodimchi, xon moyabzalchisi, xo‘jasaro, chitgar, chodiri, cho‘pon, shayx ul-islam, shamchi, shamxolchi, sharbatdor, sharbatchi, shahzoda, shig‘ovul, sholikor, shotir, ellikboshi, eshikoqosi, yuzboshi, yo‘nuvchi, o‘nboshi, o‘tar (sartarosh), qayiqchi, qalandar, qiziqchi, qilichkor, qozi, qozi askar, qozi qalon, qozi ulqo‘zot, qozi urdu, qorovul, qorovul begi, qushbegi, qo‘shbegi, hokim, yasovul boshi. Xiva xonligining davlat tuzilishi o‘zining mukammalligi jihatidan o‘z davrining ba’zi bir G‘arbiy Yevropa davlatlari tuzilishi darajasida bo‘lmasa-da, biroq ma’lum idora qilish tizimi mavjud bo‘lib, yetarli darajada tartibli edi. Shunga binoan, yuqorida eslatganimizdek, davlat mansablari saroy-ma’muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo‘linar edi. Bu vazifalarni bajaruvchilarga davlat xazinasidan tegishli maosh va mukofotlar berilgan. Sanab o‘tilgan turli-tuman amaldorlar va xizmatkorlarning mavjudligi Xiva xonligida juda katta boshqaruv apparati bo‘lganligi, mukammal boshqaruv siyosati yuritilganligini tasdiqlaydi. XVI-XVIII asrlarda xiva xonligining xarbiy va mudofa tizimi.

METADALOGIYA

Xiva xonligining tashkil topish jarayonidagi harbiy qo'shin va mudofa holati Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Huroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda qo'ng'irot qabilasidan chiqqan Chin So'fi hokim edi. U rasman Husayn Bayqaro noibi hisoblanardi. 1505-yilda Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori Shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq Shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir Shahri qozisi Umar qozi yetakchiligidan safaviylar hukmronligiga qarshi xarakat boshlanadi.

1511-yilda Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Shayboniyxon avlodlaridan bo'lган Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qildilar. Shu tariqa Xiva xonligiga asos solindi. Tez orada Xiva, Xazorasp, Kat qizilboshlilardan tozalandi. 1524-yilda Shoh Ismoilning o'limi o'zbeklarning Urganchda mustahkam o'mashib, bu hududdagi anchagini yerlarni – Sharqda hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning Shimolida Saraxs tumani, Orol va Mang'ishloqni qo'shib olishga imkon berdi. Elbarsxon davridayoq, xonlikning siyosiy geografiyasi shakllanib bo'ldi. Uning tasarrufiga Xorazm – Amudaryo etaklaridagi qadimiy dehqonchilik vohasi, Shuningdek Mang'ishloqning Abulkxon tog'lari, Dehiston va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirgan. Xiva xonligining Sharqiy chegarasi to XX asrgacha Amudaryo chap sohilidagi Darg'on (Darg'onota) qal'asi hududi bo'lган 1. Elbarsxon tomonidan Xiva xonligida harbiy kuchlar va qo'shinga alohida e'tibor berildi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, bu davrda eng asosiy jang qurollari o'q va kamon bo'lган 2. Oddiy kamon yoy shaklida egilgan qattiq yog'ochning ikkala uchini mustahkam ip bilan tarang qilib bog'lash orqali yasalgan.

Bu davrda kamonning asosi tashqi tomondan chandir, ichki tomondan silliq muguz bilan yopishtirilgan yog'ochdan iborat bo'lган. Ba'zida tutqichning o'rtasi va oxiri suyak (dandon) bilan qoplangan. Bu kamonning o'qi uzoqqa otiladigan alohida, murakkab turi edi. Shu bilan birga, murakkab tuzilishga ega kamonlarning turlari ham turlicha bo'lган. Kamondan o'q uzish nafaqat o't ochish qurollari paydo bo'lguna qadar, balki undan keyin ham O'rta Osiyoda muayyan masofadan turib nishonga urishning asosiy usuli bo'lib kelgan. Bu esa XVII asr oxiri va XVIII asr boshlaridagi qabilalar yo'lboschilarining mavqeining oshishi va iqtisodiy qudratining o'sishi bilan asoslanadi. Ularning tayanch kuchi bevosita qabila sardoriga bo'ysunadigan otliq askarlar hisoblanar edi. Ba'zi bir shaharlar xunarmandchilik ishlab chiqarishining yirik markazlari edi. Hunarmandlar ushbu madaniy markazlar aholisining asosiy qismini tashkil etgan holda, ularning bir qismini qurol-yarog' tayyorlashga ixtisoslashgan. Siyosiy qudrati ko'p jihatdan qurolli kuchlarga bog'liq bo'lган Xiva xonligining poytaxti hisoblangan Urganchda XVIII asrning birinchi yarmida qurol-yarog' yasash ishlari sezilarli darajada rivojlangan. Qo'shin va harbiylashgan qismlar uchun qilichlar, xanjarlar, oyboltalar, jangovor boltalar,sovutlar, dubulg'alar, qalqonlar va turli hildagi qurol-yarog'lar tayyorlangan. Qilich va o'qlangan kamondan hujum vaqtida otliqlar keng foydalanganlar. Kamondan qamal qilingan shaharliklar ham qal'a devorlarida turib, unumli foydalanganlar. Binobarin, kamon va o'qlar turli shakl va o'lchovda tayyorlangan. Tadqiq qilingan tarixiy manba va adabiyotlarda kamonning o'lchovi o'qining uzunligiga muvofiq kelishi haqida fikr bildirilgan.

Shuningdek, o'q otar qurollar – taxshanlar ham qo'llanilgan. Lekin taxshandozlar XVI-XVIII asrlardagi harbiy to'qnashuvlarning ishtirokchilari sifatida kamdan kam hollarda tilga

olinadi. Kamon va o'qlarni olib yurish uchun ustalar sadoq yasaganlar. Aslzodalarga mo'ljallangan sadoqlar qimmatbaho charmdan tayyorlangan. Ma'lumki, kamondan otish uchun o'q uyacha (chuqurcha) vositasida ipga mustahkamlangan. O'qlar turli shaklda bo'lishi mumkin edi. Yog'och, poynak va qush patidan yasalgan o'qlar keng tarqalgan. Ba'zida o'q yasashda qush patidan foydalanilgan. Yog'och o'qlar turli turdag'i daraxtlardan tayyorlangan, jumladan, qayindan yasalgan o'qlar tilga olinadi. Paykonlar belgilangan vazifasiga ko'ra turli tuman bo'lgan. O'qning uzunligi kabi unga suqulgan patlar ham turli shaklda edi. Neftga shimdirlig'an matoni o'qqa o'rash orqali yondiruvchi o'qlar ham tayyorlangan. Qamal qilinganlar qal'a devorlaridan turib qamal qiluvchilarni o'qqa tutish uchun ulardan foydalanganlar. Qamal qilayotganlar esa qamal qilinayotgan shaharda yong'in chiqarish maqsadida yondiruvchi o'qlar otganlar. O'qning o'rtacha qancha masofaga otilishidan amalda jang oldidan qo'shining joylashgan o'rnini, ba'zida esa umuman masofani aniqlash uchun foydalanilgan. O'qlarning uchi suyak (dandon) yoki metalldan yasalgan. Metall uchlar turli shakllarda tayyorlangan va shakldan kelib chiqib, turli maqsadlarga, masalan, ayrimlari sovutlarni teshib o'tishga mo'ljallangan. O'qlar va ularning uchlari hunarmandlar tomonidan maxsus yasalgan. Shu bilan birga, mutaxassis bo'lmanan ba'zi kishilar ham o'z bilganlaricha kamon va o'q yasaganlar. Sovut va zirhlar (jiba, sovut, javshan) jangchi tanasini sovuq va o't ochar qurollardan himoya qilgan

1. Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan qalqonlar ham turli-tuman ko'rinishda bo'lgan. Yog'och qalqonlar qal'alar qamali vaqtida qo'shin huzurida bo'lgan hunarmandlar tomonidan tayyorlanishi mumkin edi. Metall bilan ziynatlangan, nisbatan ishonchli qalqonlar ham tayyorlangan. Lekin, xususan zamondoshlarining e'tirofiga ko'ra, yaxshi merganlar bo'lgan "Xorazm yigitlari tomonidan otilgan o'qlar" bunday qalqonlarni ham ba'zida teshib o'tgan. "Ular shunaqangi yaxshi otar edilarki, - deb yozadi Bobur, - ularning o'qlari bir necha marta qalqon va sovutni, ba'zida hatto ikki qat sovutni ham teshib o'tgan edi. XIX asr o'rtalariga kelib esa xonlikda muntazam qo'shin tuzila boshlandi.

Xususan, 1850 yilga kelib Xivada muntazam piyoda va ko'ngilli otliq askarlarning yangi tarkibi shakllantirildi. Uning tarkibida 1 ta batalon bo'lib, ular ko'proq fors askarlaridan tashkil topgan. Bu batalonning soni 1000 kishi bo'lib, uning tarkibini bir necha o'nlik sarbozlar guruhi tashkil qilgan. Bu qo'shining asosiy burchi xonni qo'riqlash bo'lgan. XIX asr boshlarida viloyatlarning har birida 1000 tagacha navkarlar bo'lib, harbiy yurish vaqtida nomuntazam qo'shin to'plangan. 1869 yilga kelib Xiva xonligidagi muntazam qo'shin soni 15000 kishiga yetadi. Shundan 5000 kishi 16 piyoda, 10000 kishi muntazam otliq qo'shin bo'lgan1 . Yurish vaqtida bu ko'ngilli qo'shin ya'ni otliq navkarlar 5 tillodan pul olgan va jangda ularning oti o'lsa unga ham shuncha miqdorda pul berilgan. Munis o'zining "Firdavs ul-iqbol" asarida Muhammad Rahimxon I ning 1817 yil turkmanlar urug'i takalarga qarshi yurishda har bir navkarga asirga olgan odami uchun 10 tillo miqdorida pul to'langanligini qayd etadi 2. Harbiy mansab egasi bo'lganlarga 10, 20, 50 va 100 tillo, hatto bundan ham ko'proq miqdorda pul to'langan. Harbiy mansab egasi bo'lgan biy 50 tillodan 100 tillogacha, yuzboshi esa 10 tillodan 20 tillogacha maosh olgan 3. Xivada bo'lgan vengriyalik Arminiy Vamberi o'zining «Puteshestvie po Sredney Azii» asarida xonlikdagi qo'shin tarkibini guruhlarga bo'ladi va ularga xon tomonidan pul berilganligi hamda soliqlardan ozod etilganligini yozadi 4. Ammo XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, Xivada tuzilgan muntazam qo'shining o'z kazarmalari bo'lib, harbiy qal'a atrofida joylashtirilgan.

Ularga hukumat tomonidan bug'doy, oylik pul va yer berilgan. Muntazam qo'shindagi har bir sarboz (navkar)ga yiliga 5 tilla (20 rublgacha) va 30 dan 40 botmongacha un (botmon 7 pud 32 funt) un berilgan 5. Ko'ngilli otliq qo'shin faqat harbiy holatda to'plangan va ularning katta qismini turkman va qoraqalpoqlar tashkil etgan. 1819-1820 yillarda Xivada bo'lgan, N.N.Muravyev qo'shin sonini 12000 deb yozadi. Lekin bu ma'lumotni aniq deb bo'lmaydi. Chunki chetdan kelgan har bir kishining orqasidan xon tomonidan agentlar qo'yilib, ularning nima ish qilayotganini tekshirib turganlar. Shu boisdan, N.N.Muravyev ham xonlikning hamma joyiga kirish imkoniyatiga ega bo'lмаган. Xonlikdagi qo'shin soni esa vaziyatga qarab o'zgarib turgan. Xon saroyidagi unvon va mansablar. Unvonlar orasida eng kattasi inoq edi. Odatda inoqlar eng qudratli o'zbek urug'laridan tayinlangan hamda hamda ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lgan. Inoqlar yirik amaldor, ya'ni urug' boshlig'i hisoblangan. Abulg'ozixon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga o'z yonidan to'rtta joy ajratgan. Inoqlar biy, sulton, mingboshi kabi unvonlarni ham olganlar. XX asr boshlariga kelib inoqlar bek martabasiga tushib, oliy saroy amaldorlaridan ma'muriy mansab egalariga aylanadilar. Otaliq – urug' oqsoqoli. Inoq boshliq to'pa (guruh) ga birlashgan urug' boshlig'i. Xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan. Biy – saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keyingi martaba. Biy qabila va urug'ning boshlig'i hisoblanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o'zbeklarning urug' oqsoqollariga beriladigan unvon edi. XVII-XIX asrlarda biylar yirik o'zbek qabila va urug'lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etganlar. Biy unvoni avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan. Amir ul-umaro – Amirlarning amiri, Xiva xonligida XIX asrning o'rtalarida ta'sis etilgan. Sayid Muhammadxon bu unvoni birinchi marta o'zining akasi Sayid Mahmud to'raga bergen edi. Muhammad Amin inoq hukmronligi davrida amir ul-umaro uning akasi Fozilbiy edi. O'shandan keyin amir ul-umaro unvoni hech kimga berilmagan.

Qo'shbegi – Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan biri bo'lib, moliya va soliq yig'ish ishlarini bajargan. Qo'shbegining maxsus devoni hamda unga tobe etuvchi amaldorlari bo'lgan. Mehtar – katta, ulug' degan ma'noni beradi. Mehtar saroy xizmatkorlarining boshlig'i vazifasini bajarib, xonga yaqin kishilardan va xon urug'iga mansub a'yonlardan tayinlangan.

Mehtarning ham o'z devoni bo'lib, yer solig'i "solg'ut" to'plash ham uning xizmatiga kirgan. Beklarbegi – Qoraqalpoq va ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvon. Beklarbegining vazifasi ularning o'z urug'laridan yig'iladigan xarajatlarning to'g'rilingini tekshirib turish va ularni to'la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Bu lavozimga amaldorlar odatda xonning qarindosh-urug'laridan tayinlangan. Bek – XIX asrda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida beklar ancha katta rol o'ynaganlar. Bek – xon va davlat arboblarining qarindoshlariga, farzandlariga beriladigan faxriy unvondir. Turli xildagi jabr-zulmlar natijasida dehqonlarning kuchayib borayotgan noroziligi soliqlarni to'lashdan, majburiyatlarni bajarishdan ommaviy bosh tortish, yirik zamindorlar yerlarini egallab olish, soliq yig'uvchilar va xonlik ma'muriyatining boshqa namoyandalariga hujum qilish holatlarini ko'paytirdi. Dehqonlarning chiqishlari yer egalari amaldorlarining uylarini vayron qilish, qarz tilxatlarini yirtib tashlash va soliq yig'uvchilarni quvib yuborish bilan birga kechgan stixiyali isyonlar tarzida yuz berardi. Vaqt o'tgan sayin xon hokimiyati va mahalliy ma'murlar suiiste'mollari zo'rayishi barobarida dehqonlar chi qishlarining uyushganligi va ommaviyligi

ham o'sib bordi. XIX asming 80-yillarida Pitnak, Hazorasp, Yangi Urganch, Ko'hna Urganch tumanlarida dehqon uyushmalari vujudga kelib, kurash keskin tus ola boshladi. Xon ixtiyorida ularga qarshi kurash uchun kuchlar yetarli emasdi. Shu bois u Rossiya podshosi qo'shinlarini yordamga chaqirdi. Isyonlar bostirilib, dehqonlar harakati rahbarlari qatl etildi. Shunday bo'lsada, dehqonlarning g'alayonlari to'xtamadi. 1902-yilda Matyoqub pishiq rahnamoligida Xonqa, Hazorasp, Bog'ot tumanlari dehqonlari qo'zg'olon ko'tarishdi. Xon yana Rossiya podshosi hukumati qo'shinlariga murojaat qildi. Qattiq jazo choralar ko'rilib, qo'zg'olon tormor etildi. Uning rahbarlari qatl qilindi. Mustamlakachi hokimiyat va mahalliy amaldorlarning jabr-zulmi, turmush sharoitlarining yomonligi ko'plab xalq g'alayonlarini keltirib chiqardi. Xalq noroziligi ommaviy tus oldi va chuqur tomir otdi. XX asr boshlarida arzimas sabablar bilan qo'zg'olonlar yuz berib turardi. Ba'zi tumanlarda sabr kosasi to'lgan dehqonlar o'z oilalari bilan xonlikdan ommaviy tarzda yoppasiga qocha boshladilar. 1906-yilda Yangi Urganch, Xonqa, Hazoraspda muhtoj dehqonlar yirik zamindorlar yerlarini egallab ola boshlashdi. Xiva xonligida 1910—1911-yillar qurg'oqchilik va hosilsizlik yili bo'ldi. Xonlik aholisi ocharchilik girdobida qolgandi. Yetkazilgan zararlarni qoplash uchun xon ma'murlari aholidan imkon bo'lgan hamma narsani tortib ola boshladi. Soliqlar esa oshib bordi. Aholining ommaviy qashshoqlashuvi dehqonlarda norozilik tug'dirdi. 1910-1917-yillarda dehqonlar g'alayonlari keng tus oldi: insofsiz katta yer egalari va boylarni kaltaklash, ulaming imoratlari, xo'jalik inshootlari, omborlarini buzib tashlash kabilalar avj oldi.

NATIJALAR

1912-yildagi Hazorasp, Xonqadagi qo'zg'olonlar keskin tus oldi. Doimiy qo'zg'olonlar natijasida xalq o'qotar aslahalar bilan quronanib, urush olib borish taktikasini o'rganib olgan edi. Dehqonlar yirik zamindorlar va xonlik amaldorlarining yerlarini egallab ola boshladilar. Asfandiyorxon 1000 kishilik o'zining eng sara qo'shinini qo'zg'olonchilarini bostirishga tashladi. Ammo kutilmaganda Alieli va Toshhovuz o'rtasida ular qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor etildi. Xonga madadga yetib kelgan podsho hukumati qo'shnari qo'zg'oloni qiyinchilik bilan bostirdi. 1912-yilgi qo'zg'olon xalq norozilik chiqishlarida yangi omilni namoyon qildi, ya'ni qo'zg'olonchilar o'qotar aslahalar bilan quronanib, urush olib borish taktikasini o'zlashtirgan edilar Muhammad Rahimxon II vafot etgach, podsho hukumati yordamida taxtni uning o'g'li Asfandiyorxon (1910-1918) egallaydi. Petro-Aleksandrovska turgan Rossiya harbiy kuchlari madadiga ishonib, yangi xon islohotlar o'tkazdi, ishni zulmni kuchaytirish va muxolafatni to'liq mahv etishdan boshladi. 1913-yilda u islohotchilar rahnamolaridan biri, mamlakat bosh vaziri Islomxojani davlat mablag'larini o'zlashtirishda ayblab o'lardiriradi. Xon buyrug'iga ko'ra yerlarni yangidan o'lhash boshlandi. Aslida bu tadbir yangi soliqlarni joriy qilishdan iborat edi. Dehqonlar esa bunga Mang'it va Xo'jaylida qo'zg'olonlar ko'tarish bilan javob berishdi. Xonning tayanchi bo'lgan podsho hukumati uni uzoq qo'llay olmadidi. Rossiyadagi 1917-yilgi fevral voqealaridan keyin Asfandiyorxon asosiy tayanchi - podsho hukumatidan mahrum bo'lib, bir necha muddat yakkalanib qoldi. Yosh xivaliklar qulay vaziyatdan foydalanib qolishga qaror qilishdi va islohotlar uchun ochiqdan ochiq harakatni boshlab yubordilar. 1917-yil 5-aprelda ular Asfandiyorxonidan islohotlar o'tkazish to'g'risidagi manifestni imzolashni talab qilishdi. Islohotlar xon hokimiysi saqlangan, ammo Majlis (deputatlar palatasi) va Nozirlar kengashi (Vazirlar kengashi) bilan cheklangan konstitutsiyaviy monarxiyani tashkil etishni o'z ichiga

olgandi. Yosh xivaliklar, shuningdek, davlat mablag‘lari sarflanishi ustidan nazorat qilish uchun moliya vazirligi, suv taqsimotini isloh qilish, xonlikning butun hududida yangi usul maktablarini tashkil qilish uchun qo‘mita tuzishni, temiryo‘llar va pochta-telegraf tizimi qurilishini ham talab qilishgandi. Podsho hukumati qo‘shinlari madadidan mahrum bo‘lgan Asfandiyorxon har qanday yo‘l bilan hokimiyatni saqlab qolish va vaqtadan yuritish maqsadida islohotlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi manifestga imzo chekdi. 1917-yil 26-apreldagi Majlisning birinchi sessiyasida 30 nafar xivalik deputat va turkmanlardan 7 nafar vakil ishtirok etdi. Majlis Vazirlar kengashini sayladi. Ammo ikki oy o‘tmasdan xon boshchiligidagi konservativ kuchlar harbiy to‘ntarishni amalga oshirdi va Majlisni tarqatib yubordi. Yosh xivaliklar rahnamolari hibsga olinib, ulardan bir qismi Muhammad Rahimxon II otib tashlandi. Lekin bu voqealarga yangi bir kuch - turkman urug‘laridan birining sardori Junaidxon aralashdi. 1918-yil yanvarda 1,5 ming kishilik otliq otryad bilan u Xivani, keyin esa xonlikning boshqa tumanlarini egallab oldi. Asfandiyorxonni nomigagina taxtda qoldirgan Junaidxon xonlikda o‘zining yakkahokimligini o‘rnatdi. Keyinchalik uning buyrug‘iga ko‘ra Asfandiyorxon o‘ldirilib, o‘rniga Said Abdulla taxtga o‘tqazildi. Rossiya hukumati Xivada «inqilob» tayyorlay boshladи. Bolsheviklar tomonidan egallab olingan Petro-Aleksandrovska Kommunistik partiya tuzilib, to‘ntarishga tayyorgarlik ko‘rilgan. To‘ntarish 1920-yil 2-fevralda ro‘y berdi va tarixda u «xalq inqilobi» nomini oldi. 27-aprelda Sovetlarning birinchi Butun Xiva qurultoyi to‘rt asrdan ortiqroq vaqt mavjud bo‘lgan Xiva xonligi o‘rnida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tashkil topganini e’lon qildi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki Xiva xonligidagi amalga oshirilgan islohatlar natijasida tarix saxifasida azaliy va o‘chmas tarix sahifalariga muhirlanib qoldi. Qo‘ngirotlarning hukmronligi davrida davlatning tashqi va ichki siyosatiga doir qator yangi fikrlar o‘rganildi. O‘rta Osiyoda shakllangan uchta mustaqil - Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixiga bag_ishlab alohida-alohida asarlar yaratilgan edi. Bu tarixiy asarlar mazkur xonliklarning tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladilar. Xiva xoni va tarixnavisi Abulg’oziy tomonidan tarixiy asarlar yozish an‘anasi, keyinchalik atoqli tarixnavislar va ajoyib shoirlar Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan davom ettirilgan edi. Xorazm tarixi bo‘yicha yozilgan hamma tarixiy asarlarni o‘zbek tilida ijod etgan mazkur tarixnavislar bir-birlarining ishini davom ettirib, uzoq davrni o‘z ichiga qamrab olgan Xiva xonligi tarixini o‘rganishda ajoyib ma‘lumotlarga boy qator qimmatli tarixiy asarlar yaratildi. Xiva xonligining siyosiy hayotida ro‘y bergen katta voqealardan biri Xiva xonligini podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishi edi. Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida bu masalaga juda mufassal to‘xtalib o‘tgan va bu borada juda qimmatli ma‘lumotlarni keltirgan. Bayoniy o‘zining «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida bu masalaga juda mufassal to‘xtalib o‘tgan va bu borada juda qimmatli ma‘lumotlarni keltirgan.

REFERENCES

1. Soyibjon Tillaboyev, Akbar Zamonov O‘zbekiston tarixi sharq nashiryoti Toshkent - 2019
2. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. ikkinchi kitob. T: Sharq, 2020 yil

3. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. K.1 / Mas’ul muharrir: A. Sagdullayev. – T.: Sharq, 2016. –B.41-105.
4. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/696768/54d998730301a.pdf>
5. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jildlik. Toshkent.
6. Vatan tarixi. R.Shamsutdinov. Sharq 2016. Toshkent.
7. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. I.Karimov. Sharq 1998. Toshkent.
8. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston 2016. Toshkent.